



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbasjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Jalolov Otabek Oybek o'g'li

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: o.o.jalolov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalarning roli nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududning turizm sohasidagi raqamli yetukligini yagona ko'rsatkich orqali baholash imkonini beruvchi Mintaqaviy Turizm Innovatsiya Indeksi (MTII) ishlab chiqishdir. Shuningdek, "turizm iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalar" tushunchasiga muallif ta'rifi taklif etiladi. Tadqiqot natijalari hududiy turizm siyosatini ishlab chiqishda, raqamli infratuzilmaga investitsiyalarni ustuvorlashtirish va innovatsion xizmatlarni rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Turizm iqtisodiyoti, innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya, Mintaqaviy Turizm Innovatsiya Indeksi (MTII), smart tourism, raqamlashtirish.

Abstract: This article analyzes the role of innovative technologies in the tourism economy theoretically and methodologically. The main goal of the study is to develop a Regional Tourism Innovation Index (RTII), which allows assessing the digital maturity of the region in the tourism sector through a single indicator. The author's definition of the concept of "innovative technologies in the tourism economy" is also proposed. The results of the study are of practical importance in developing regional tourism policy, prioritizing investments in digital infrastructure, and developing innovative services.

Keywords: tourism economy, innovative technologies, digital transformation, Regional Tourism Innovation Index (RIIT), smart tourism, digitalization.

Абстрактный: В данной статье теоретически и методологически анализируется роль инновационных технологий в туристической экономике. Главная цель исследования разработка Регионального индекса инноваций в туризме (РИТИ), позволяющего оценивать цифровую зрелость региона в туристическом секторе с помощью единого показателя. Также предложено авторское определение понятия «инновационные технологии в туристической экономике». Результаты исследования имеют практическое значение для разработки региональной туристической политики, определения приоритетов инвестиций в цифровую инфраструктуру и развития инновационных услуг.

Ключевые слова: экономика туризма, инновационные технологии, цифровая трансформация, Региональный индекс инноваций в туризме (РИИТ), умный туризм, цифровизация.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahonda turizm sohasini samarali rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu avvalo, turizmning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar sayohat jarayonlarini qulaylashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda turistlar oqimini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. "Global virtual turizm bozori 2023-yilda 12,3 milliard dollarga baholandi va 2033-yilga kelib 26 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2023-yildan 2033-yilgacha bo'lgan prognoz davrida 7,8 foizga o'sadi"[17]. Ushbu tendensiya turizm xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion yechimlardan foydalanish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jahonda turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni tadqiq etish nazariyasi, rivojlanish tarixi, turizm sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati, ko'rsatkichlari, yo'nalishlari, turizm obyektlari targ'ibotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ahamiyati, innovatsion texnologiyalarning turistlar xulq-atvoriga ta'sir etish ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[8]. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar qatorida, turizm innovatsion texnologiyalar orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda turistik mahsulotlarni targ'ib qilish, turizm sohasida raqamli texnologiyalar, jumladan, virtual va kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt, blokcheyn hamda IoT texnologiyalaridan samarali foydalanish, turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida, innovatsion texnologiyalarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish masalalarini tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlari natijasida turizm sohasini raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirish, turizm hududlarini barqaror rivojlantirish asosida xorijiy innovatsion raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish asosida turizm sohasini ham kelgusi yillarda sezilarli rivojlantirish ko'zda tutilgan. Butun dunyoda raqamli

texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda[9]. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, ayniqsa, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolyapti. Raqamlashtirish iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi[15]. Bu vazifalar, o'z navbatida, hududlarda turizm sohasida erishilgan natijalar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, turistik markazlarini ijtimoiy tarmoqlarda innovatsion texnologiyalar orqali tanitish, turistik obyektlar uchun virtual turizm kontentlarini yaratish, sun'iy intellektni qo'llash asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, takomillashtirish kabi istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Turizm sohasida innovatsion texnologiyalar rivojlanishini o'rganishga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu masala xalqaro miqyosda juda ko'p tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Ilmiy manbalarda, avvalo, turizm xizmatlarining o'ziga xosligi, ya'ni ularning moddiy emas, balki xizmat ko'rsatishga asoslanganligi, iste'molchiga bevosita hissiy tajriba yetkazishi innovatsiyalarni qo'llash zarurligini taqozo etadi. Poon (1993) o'zining mashhur konsepsiyasida "yangi turizm"ni innovatsiyaga asoslangan soha sifatida baholab, turizm raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida texnologik yangiliklarni ko'rsatadi. Shu sababli, turizm ilmiy izlanishlarning katta qismi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini qamrab oladi[12].

Keyingi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning turizmga ta'siri bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. Buhalis va Law (2008) tomonidan yozilgan ilmiy maqolalarda internetning ommalashuvi turizm sohasini tubdan o'zgartirgani, onlayn bronlash tizimlari, virtual gidlar va elektron savdoning rivojlanishi turistik xizmatlar uchun global bozorni kengaytirgani ta'kidlanadi[4]. Gretzel va

hamkorlari (2015) esa "smart tourism" konsepsiyasini ilgari surib, IoT, Big Data, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalar turizm xizmatlarini yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va real vaqtga moslashgan shaklga aylantirishini ilmiy asoslab bergan[6].

Diffuziya nazariyasi asosida olib borilgan adabiyotlar tahlili turizm korxonalarining innovatsiyalarni qabul qilish bosqichlarini izohlashda muhim nazariy bazani taqdim etadi. Ushbu nazariya bo'yicha, turizm innovatsion texnologiyalar dastlab kichik guruh - "innovatorlar" tomonidan sinab ko'riladi, so'ngra "erta qabul qiluvchilar"[7], keyin esa keng omma tomonidan qabul qilinadi. Shu sababli, ilmiy izlanishlarda turizm korxonalar uchun marketing strategiyasi va yangiliklarni joriy etish mexanizmi qanday tashkil etilishi alohida tahlil qilinadi[13].

Platforma iqtisodiyoti haqidagi ilmiy adabiyotlarda Airbnb, Booking.com va Expedia kabi raqamli platformalarning turizm xizmatlarini global miqyosda tarqatishdagi roli alohida o'rganilgan. Masalan, Guttentag (2015) Airbnb fenomenini tahlil qilib, uning ikki tomonlama bozor modeli orqali nafaqat turizm bozorini diversifikatsiya qilgani, balki mahalliy iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi. Shu nuqta nazardan, zamonaviy adabiyotlarda turizm innovatsiyalari ko'pincha "sharing economy" (ulashish iqtisodiyoti) bilan uzviy bog'liq holda ko'rilmogda.

Xizmat-dominant mantiq (SDL) konsepsiyasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda (Vargo & Lusch, 2004) innovatsiyalar nafaqat texnik jarayon sifatida, balki iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchi o'rtasida qiymat yaratish mexanizmi sifatida izohlanadi[18]. Shu jihatdan, AR/VR texnologiyalarining ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanayotgani kuzatiladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, VR turizmga safar oldidan "virtual tajriba" yaratib, sayyohni safarga ruhli tayyorlaydi, AR esa real vaqt rejimida qo'shimcha interaktiv ma'lumot beradi. Bu esa iste'molchining xizmatdan qoniqishini sezilarli oshiradi.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari ham mazkur yo'nalishda shakllanib bormogda. Masalan, Abdurahmonov (2020) turizm xizmatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi muhim yo'nalish sifatida ko'rsatadi[1]. Yo'ldoshev (2021) tadqiqotida mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlarining O'zbekiston turizmida samaradorligini tahlil qiladi[19]. Mahmudov (2022) esa blokcheyn texnologiyasining to'lov tizimlari xavfsizligini oshirish va shaffoflikni ta'minlashdagi imkoniyatlarini o'rgangan[10]. Ushbu tadqiqotlar milliy turizm innovatsion texnologiyalarning samarali joriy etilishi uchun davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi zarurligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlarda institutsional yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Innovatsiyalarni tatbiq etishda davlatning me'yoriy-huquqiy bazasi, strategik dasturlari va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari doimiy ravishda ta'kidlanadi. Masalan, O'zbekistonda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, Prezident farmonlari va "Turizm to'g'risida"gi qonunlar ilmiy adabiyotlarda turizm innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi uchun huquqiy asos sifatida ko'rsatilmogda.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Metodlar/Methods).

Tadqiqotda kompozit indeks qurishning xalqaro standartlashtirilgan metodologiyasi qo'llanildi. Metodologik asos sifatida uchta nufuzli

xalqaro yondashuv - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD, 2008) kompozit indikatorlar qo'llanmasi, BMT Taraqqiyot Dasturining Inson Rivojlanishi Indeksi (HDI) hamda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining Global Innovatsiya Indeksi (GII) metodologiyalari tanlandi.


Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Turizm xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha bir qator adabiyotlar va ilmiy ishlar yaratilgan. Xususan, Dimitrios Buhalis o'z ilmiy izlanishlarida turizm, sayohat, mehmondo'stlik va umumiy ovqatlanish sohalardagi barcha jarayonlarda qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish va ularni raqamlashtirishga qaratgan[3]. Janubiy Kaliforniya universiteti professori Ulrike Gretsel tadqiqotlarida an'anaviy turizm tarmog'iga axborot texnologiyalarini kiritish, raqamli turizm asosida xavfsiz turizm marshrutlarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan[5]. L.Kantoni, J.Pesonen, M.Sigala, X.Vertner singari xorijiy olimlar turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning driveri sifatida turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish, mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini - ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmni, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish kabi masalalar o'rganilgan[14].

MDH olimlaridan Y.G.Popkova, A.A.Shichkina, O.V.Kuznetsova bir qator ilmiy asarlarida turizm raqamli texnologiyalardan foydalanish tendensiyalari va kelajak istiqbollari bo'yicha ilmiy yangiliklar kiritishdi[20]. Shuningdek, N.Morze, S.Ivanov, O.Pizlo o'z ilmiy ishlarida asosan turizm industriyasining ko'rsatkich va omillar bo'yicha ekonometrik tahlili, dasturlash asosida arzon va sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirishgan[11].

Mahalliy olim va tadqiqotchilar ham turizmning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Xususan, O.Astanakulov, M.Sohibova[2], N.Tuxliyevlar turizmning rivojlanish modellari haqida tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, N.Tuxliyevning bir qator tadqiqotlarida turizmni O'zbekistonda rivojlantirish modellari[16] va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan. Bundan tashqari, O.Astanakulovning "Turizm 4.0: turizm industriyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" nomli tadqiqotida turizm raqamlashtirish, avtomatlashtirish va robotizatsiya masalalarini ochib bergan.

Turizm sohasida innovatsion texnologiyalar so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada rivojlanib, sohaga yangi imkoniyatlar yaratdi hamda zamonaviy xizmat turlarining shakllanishiga zamin hozirladi. Bu jarayon turizm kompaniyalari uchun faoliyat samaradorligini oshirish, xizmatlar



1-rasm. Mualliflik ta'rifining strukturaviy chizmasi¹

sifatini yaxshilash va iste'molchilar uchun individual yondashuvni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar sayohat jarayonlarini yanada qulay hamda xavfsiz qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston turizm iqtisodiyotini hisobga olgan holda turizm iqtisodiyotidagi innovatsion texnologiyalarning quyidagi muallif ta'rifini taklif etamiz:

"Turizm iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalar" - bu turizm sohasidagi qiymat yaratish zanjirini tubdan yoki bosqichma-bosqich qayta shakllantira oladigan, sayyoh tajribasini sifat jihatidan boyituvchi, resurs samaradorligini oshiruvchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi texnik, axborot-kommunikatsion, tashkiliy va ijtimoiy-madaniy yangiliklar tizimi bo'lib, u muayyan hududning iqtisodiy, madaniy va ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda institutsional muhit bilan o'zaro ta'sirda rivojlanadi va sohaning raqobatbardoshlik salohiyatini uzoq muddatli asosda mustahkamlaydi.

Ushbu taklif etilgan ta'rif mavjud yondashuvlarning sintezi bo'lib, Shumpeter an'anasidan kelib chiqqan o'zgarishlar farqini saqlagan holda, zamonaviy turizmning ko'p o'lchovli, qiymatga asoslangan va institutsional kontekstda joylashgan tabiatini hisobga oladi. O'zbekiston turizm iqtisodiyoti sharoitida kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri - innovatsion texnologiyalarning mahalliy madaniy va tabiiy resurslar bilan o'zaro ta'siri, ya'ni "innovatsiya - an'ana" ta'limotini chuqur o'rganishdir.

Shuningdek, ushbu tadqiqotda yangi "Mintaqaviy Turizm Innovatsiya Indeksi" (MTII) ishlab chiqildi. MTII - bu Buxoro viloyati uchun to'rtta raqamli ko'rsatkich asosida qurilgan kompozit (jamlama) indeks bo'lib, hududning turizm sohasidagi raqamli yetukligini yagona, 0-100 shkalali ball orqali ifodalaydi. Indeks metodologik jihatdan uchta nufuzli xalqaro standartga - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD, 2008) kompozit indikatorlar qo'llanmasi, BMT Taraqqiyot Dasturining Inson Rivojlanishi Indeksi (HDI) hamda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining Global Innovatsiya Indeksi (GII) metodologiyalariga asoslanadi. Bu MTII ning ilmiy asoslanganligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi.

MTII indeksining tarkibiy qismlari va ularga berilgan og'irliklarni ilmiy asoslash maqsadida innovatsion texnologiyalarning qabul qilinishi va tarqalishini izohlovchi uchta nufuzli nazariy yondashuvdan foydalanildi. Bular Texnologiyani qabul qilish modeli (Technology Acceptance Model - TAM), Innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi (Diffusion of Innovations - DOI) hamda Texnologiya-Tashkilot-Muhit (Technology-Organization-Environment - TOE) modeli hisoblanadi. Ushbu uch nazariyaning integratsiyasi indeksning har bir komponentiga yagona emas, balki uch tomonlama nazariy zamin yaratadi, bu esa metodologik mustahkamlikni sezilarli oshiradi.

1-jadval

Mintaqaviy Turizm Innovatsiya Indeksi (MTII) daraja klassifikatsiyasi¹

Daraj a	Diapazo n	Nomi	Holat	Siyosat
A+	> 80	Innovatsio n lider	Barcha komponentlar yuqori; xalqaro standart	Masshtablash, AI integratsiya
A	65-80	Yuqori innovatsio n	Asosiy komponentlar kuchli; 1-2 zaif tomon	Zaif komponentlarni mustahkamlash
B+	50-65	O'rta-yuqori	Raqamli infratuzilma rivojlanmoqda	Investitsiya optimallashtirish, fintech
B	35-50	O'rta	Ayrim komponentlar past	Bazaviy infratuzilma rivojlantirish

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Abdurahmonov A. Raqamli texnologiyalarni turizm infratuzilmasiga joriy etish yo'nalishlari // O'zbekiston iqtisodiyoti va turizm jurnali. – 2020. – № 3. – B. 45-52.
2. Astanakov O., Soxibova M. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida // Scientific Journal of "International Finance & Accounting". – 2023. – Issue 5, October.
3. Buhalis D. Technology in tourism – from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article // Tourism Review. – 2020. – Vol. 75, № 1. – P. 267-272. – DOI: 10.1108/TR-06-2019-0258.

¹ Tadqiqot doirasida muallif tomonidan tuzilgan.

C	20-35	Past	Ko'pchilik komponentlar qoloq	ATM va EH kengaytirish ustuvor
D	0-20	Minimal	Raqamli transformatsiya boshlanmagan	Raqamli strategiya ishlab chiqish

Tadqiqotda Buxoro viloyati turizm boshqarmasining 2017-2025-yillar uchun rasmiy statistik ma'lumotlari ishlatildi. Jami to'rtta ko'rsatkich to'qqiz yil davomida kuzatilib, 36 ta kuzatuv nuqtasini tashkil etdi.

MTII kontekstida elektron mehmonxona tizimi (EH) asosiy TAM idrok etilgan foydalilik indikatorini hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, mehmonxonaning elektron tizimga ixtiyoriy ravishda ulanishi raqamli xizmatning turizm subyektlari, ya'ni mehmonxona egalari va menejrlari tomonidan foydali deb baholanganligini anglatadi. Boshqacha aytganda, EH ko'rsatkichi raqamli xizmatlarning amalda qabul qilinish darajasini bevosita o'lchaydi. Aynan shu sababli EH komponenti indeksda eng yuqori og'irlikka - 35 foizga ega.

MTII tarkibida valyuta bankomatlari (ATM) va to'lov terminallari (TERM) DOI nazariyasining nisbiy ustunlik va muvofiqlik indikatorlari sifatida talqin qilinadi. Bankomatlar va terminallar xorijiy turistlariga naqd pulsiz, qulay va xavfsiz to'lov imkoniyatini beradi, bu an'anaviy naqd pul muomalasiga nisbatan aniq va sezilarli ustunlikdir. Ushbu nazariy asos bankomat komponentining 25 foizlik va terminal komponentining 20 foizlik og'irlikni belgilaydi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, zamonaviy sharoitda turizm sohasining raqobatbardoshligi bevosita innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq. An'anaviy xizmat ko'rsatish modellari mijozlarning individuallashtirilgan xizmat, tezkor axborot almashinuvi va xavfsizlikka bo'lgan zamonaviy ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi, bu esa sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, AR/VR, blokcheyn va IoT kabi yechimlarni joriy etishni zaruriy shartga aylantiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot doirasida "turizm iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalar" tushunchasiga muallif ta'rifi taklif etildi. Ushbu ta'rif Shumpeter an'anasidagi o'zgarishlar mohiyatini saqlagan holda, zamonaviy turizmning ko'p o'lchovli, qiymatga asoslangan va institutsional kontekstda joylashgan tabiatini hisobga oladi.

Uchinchidan, Buxoro viloyati misolida ishlab chiqilgan Mintaqaviy Turizm Innovatsiya Indeksi (MTII) hududning turizm sohasidagi raqamli yetukligini yagona ko'rsatkich orqali baholash imkonini beradi. Indeksning xalqaro metodologik standartlarga va uchta nazariy modelga asoslanishi uning ilmiy asoslanganligi hamda xalqaro taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Past va minimal darajadagi (C va D) hududlarda valyuta bankomatlari va to'lov terminallari tarmog'ini kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilash;
2. O'rta darajadagi (B, B+) hududlarda raqamli infratuzilmaga investitsiyalarni optimallashtirish va fintech yechimlarni joriy etish;
3. Yuqori darajadagi (A, A+) hududlarda zaif komponentlarni mustahkamlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish;
4. Turizm sohasida raqamli xizmatlarni rivojlantirish uchun davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish;
5. Kelgusi tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarning mahalliy madaniy va tabiiy resurslar bilan o'zaro ta'sirini, ya'ni "innovatsiya - an'ana" ta'limotini chuqur o'rganish.

4. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet // *Tourism Management*. – 2008. – Vol. 29, № 4. – P. 609–623.
5. Gretzel U. Information and Communication Technologies in Tourism [Elektron resurs]. – 2009. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/309952237> (murojaat sanasi: 23.06.2026).
6. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // *Electronic Markets*. – 2015. – Vol. 25, № 3. – P. 179–188.
7. Guttentag D. Airbnb: disruptive innovation and the rise of an informal tourism accommodation sector // *Current Issues in Tourism*. – 2015. – Vol. 18, № 12. – P. 1192–1217.
8. Khamidov O, Tokhirov J, Khurramov O, Barnayev Z. Tourism impact analysis through E3S Web of Conferences [Internet]. 2023;431:107049. doi:10.1051/e3sconf/202343107049
9. Khurramov O. K. Directions for improvement digital tourism and tourism info structure in Uzbekistan / O. K. Khurramov, S. A. Fayzieva, F. K. Saidova [et al.] // *Journal of Critical Reviews*. - 2020. — Vol. 7, No. 5. - P. 366-369. - DOI: 10.31838/jcr.07.05.72.
10. Mahmudov I. Blokcheyn texnologiyalarining turizmga qo'llanish istiqbollari // *Axborot texnologiyalari va innovatsion tadqiqotlar jurnali*. – 2022. – № 4. – B. 55–63.
11. Morze N., Ivanov S., Pizlo O. E-Tourism Platforms: A Comparative Analysis of User Satisfaction and Loyalty Factors // *Journal of Information Technology in Tourism*. – 2018. – Vol. 20, № 3. – P. 213–225.
12. Poon A. *Tourism, Technology and Competitive Strategies*. – Wallingford : CABI, 1993. – 370 p.
13. Rogers E. M. *Diffusion of Innovations*. – 5th ed. – New York : Free Press, 2003. – 551 p.
14. Sigala M., Xiang Z., Koo C. *Smart tourism: foundations and developments*. – St. Gallen : Institute of Information Management, University of St. Gallen, 2015.
15. Tadjieva S, Tokhirov J, Khurramov O, Juraeva Z, Khodjaeva D. Tourism and sustainable development studies in Uzbekistan [Internet]. 2023;403:8027. doi:10.1051/e3sconf/202340308027
16. Tuxliyev N. Tourism development model in Uzbekistan and its specific characteristics // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2023. – Vol. 11, № 3. – P. 73–78. – ISSN 2181-1016.
17. Future Market Insights xalqaro bozor tadqiqot tashkiloti hisoboti, <https://www.futuremarketinsights.com/reports/virtual-tourism-market>, murojaat etilgan sana: 20.06.2024 Vargo S. L., Lusch R. F. Evolving to a New Dominant Logic for Marketing // *Journal of Marketing*. – 2004. – Vol. 68, № 1. – P. 1–17.
18. Werthner H. *Information and Communication Technologies in Tourism 2018 : Proceedings of the International Conference, Jönköping, Sweden, January 24–26, 2018*. – Cham : Springer, 2018.
19. Yo'ldoshev S. Mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlarining O'zbekiston turizmida qo'llanilishi // *Innovatsion rivojlanish jurnali*. – 2021. – № 2. – B. 33–40.
20. Попкова Е. Г., Шичкина А. А., Кузнецова О. В. Цифровые технологии в туризме: возможности и вызовы // *Цифровизация экономики и общества: тенденции, вызовы, перспективы : материалы Междунар. науч. конф.* – 2019. – С. 123–130.